



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-51-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasi tuman Kengashi va deputatlik guruhi tashabbusi bilan kiritilgan "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali tomonidan 2024-yil davomida amalga oshirilgan vazifalarini bajarilishi hamda 2025-yildagi ustuvor rejalar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-oktabr "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-343-sonli qarori ijrosini ta'minlash, aholini toza va sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash hamda oqova suv xizmatlarini yaxshilash ta'minlash, shuningdek, "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali rahbari F.Pirmatovning 2024-yilda amalga oshirilgan ishlari hamda 2025-yildagi ustuvor rejalar to'g'risida"gi hisobotini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali rahbari tomonidan 2024-yil davomida amalga oshirilgan vazifalarini bajarilishi hamda 2025-yildagi ustuvor rejalar to'g'risida"gi F.Pirmatovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali rahbari (F.Pirmatov)ga:
 - iste'molchilarning to'lov intizomini mustahkamlash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish;
 - aholiga ichimlik suvini toza va sifatli uzluksiz yetkazib berish;
 - ichimlik suv va oqova obyektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish
 - iste'molchilarga yetkazib berilgan ichimlik suvi bo'yicha hisob-kitoblarni belgilangan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirgan holda mavjud debitor qarzdorlikni undirish;
 - oqova suv xizmati sifatini yaxshilash, hamda oqova suv tarmoqlarini o'z vaqtida sifatli ta'mirlash ishlarini olib borish;
 - ichimlik suvidan foydalanadigan tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar orasida mutasaddi idoralar vakillari ishtirokida doimiy ravishda ichimlik suvidan oqilona foydalanish bo'yicha targ'ibot tadbirlari o'tkazib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov, “Samarqand suv ta’minoti” AJ tuman filiali rahbari F.Pirmatov bilan birgalikda suv va oqova suv obektlari qurilishida malakali pudratchilarning ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rsin.

4. “Samarqand suv ta’minoti” AJ tuman filiali rahbari F.Pirmatovga suv ta’minoti sohasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashida aholini ichimlik va oqova suv bilan ta’minlash darajasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari hamda kelgusidagi rejalar to‘g‘risida hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev), tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulovga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH